

O'qituvchi — odobli, adolatli hamda «bola qalbining injeneri»dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'quvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladilar. Bola garchi yosh bo'lsa-da, uning inson ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Pedagog olim **Komil Zaripov** o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini "Ilg'or o'qituvchi", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi:

"Ilg'or o'qituvchi" avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda **o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi**. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or o'qituvchi"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning **jiddiy farqi shundaki, ilg'or o'qituvchi mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi**. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l – yo'riqlarga **o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodi usullardan foydalanadi**"³.

"Novator o'qituvchi", **o'zining yaxlit pedagogik vosita va usulla mavjudligi bilan farqlanib turadi**. Shu bilan birga novator o'qituvchilik ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlariga ham ega bo'ladi. Ularning ko'pchiligida **g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi**.

O'qituvchining kasbiy mahorati

1. **Ilg'or o'qituvchi**

- Mas'uliyatli bo'ladi.
- Yaxshi tajribalarni **o'rganadi va qo'llaydi**.
- Darslardan tashqari tadbirlarda ham **faol ishtirok** etadi.
- Ta'lim va tarbiya sohasida yutuqlarga erishadi.

2. **Ijodkor o'qituvchi**

- Ilg'or o'qituvchi kabi xususiyatlarga ega.
- Mavjud manbalarga **tanqidiy qaraydi**.
- Sharoitga mos ravishda **yangi metodlardan foydalanadi**.

3. **Novator o'qituvchi**

- O'ziga xos pedagogik yondashuvlarga ega.
- O'z ishiga **tanqidiy** qaray oladi.
- Murakkab sharoitlarda ham yangi usullarni qo'llaydi.
- Ishining to'g'riligiga **ishonch** bilan harakat qiladi.

Maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi dars jarayonida ilg'or tajribalarni **o'rganib**, o'z mashg'ulotlarida samarali usullarni **qo'llaydi**. Shuningdek, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda ham **faol** qatnashadi. **Ushbu o'qituvchida kasbiy mahorati qaysi turi mavjud?**

- a) **Ilg'or o'qituvchi**
- b) Ijodkor o'qituvchi
- c) Novator o'qituvchi
- d) An'anaviy o'qituvchi

Maktabning biologiya fani o'qituvchisi **mavjud metodlarni tahlil qilib**, ularning **kamchiliklarini aniqlaydi** va dars jarayonida yangicha yondashuvlarni sinab ko'radi. U o'z tajribasi bilan jamoadagi boshqa o'qituvchilardan farqlanadi. **Ushbu o'qituvchida kasbiy mahorati qaysi turi mavjud?**

- a) Ilg'or o'qituvchi
- b) **Ijodkor o'qituvchi**
- c) Novator o'qituvchi
- d) An'anaviy o'qituvchi

Maktabning matematika fani o'qituvchi o'ziga xos pedagogik tizim **yaratgan** bo'lib, mavjud usullardan farqli ravishda **yangi metodlar ishlab chiqadi** va murakkab sharoitlarda ham ulardan foydalanadi. Shuningdek uning xatti-harakatlaridan o'ziga bo'lgan domiy **ishonch** ko'zga tashlanib turadi. **Ushbu o'qituvchida kasbiy mahorati qaysi turi mavjud?**

- a) Ilg'or o'qituvchi
- b) Ijodkor o'qituvchi
- c) **Novator o'qituvchi**
- d) Oddiy o'qituvchi

O'qituvchi ta'lim jarayonida **mavjud usullarni qo'llaydi**, ammo ularni **yangilash yoki o'zgartirishga ehtiyoj sezmaydi**. Uning asosiy maqsadi darsni reja asosida o'tishdir. Bu qanday o'qituvchi?

- a) Ilg'or o'qituvchi
- b) Ijodkor o'qituvchi
- c) Novator o'qituvchi
- d) **An'anaviy o'qituvchi**

Ma'lumotlardan foydalanganda muallif nomi ko'rsatilishi shart.

Muallif: Zaxiriddin Jumanazarov

O'QITISH METODLARI

Metod, usul va pedagogik texnologiyalar haqida o'

Metod – yunoncha so'z bo'lib, "tadqiqot", "maqsadga erishish yo'li" degan ma'nolarni anglatadi. Umumiy ma'noda metod – maqsadga erishish usuli bo'lib, ma'lum tartibda tashkil etilgan faoliyatni ifodalaydi. Ta'lim jarayonida metod o'qituvchining o'quv materialini yetkazishdagi faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini uyg'unlashtiradi.

Ta'lim metodlari

Ta'lim metodlari – o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishga qaratilgan didaktik vazifalarni hal qilish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi faoliyati va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisidir.

Ta'lim jarayonida **metod** va **usul** tushunchalari o'zaro bog'liq. Ta'lim usuli metodning tarkibiy qismi yoki alohida tomoni hisoblanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining ma'lum bir qismi hal qilinadi.

Pedagogik texnologiya

Pedagogik texnologiya – aniq loyiha asosida tashkil etilgan, maqsadga yo'naltirilgan va natijani kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Har qanday pedagogik texnologiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik
- Muloqot va o'zaro ta'sir
- Pedagogik jarayonni boshqarish tamoyillari
- O'quvchilarning faolligini oshirish

Pedagogik texnologiya uch darajada qo'llaniladi:

1. **Umumpedagogik (makro) daraja** – umumiy ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lib, muammoli, tabaqalashtirilgan, integratsion, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli va masofaviy ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Bu darajadagi texnologiyalar olimlar va novator o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va samaradorligi tasdiqlangandan so'ng keng tatbiq etiladi.
2. **Xususiy-metodik (mezo) daraja** – ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirishga asoslanadi. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni texnologik model asosida rejalashtirishi lozim.
3. **Lokal (mikro) daraja** – o'quv-tarbiya jarayonining alohida qismlarini qamrab oladi. Masalan, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish yoki maxsus ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyalari ushbu darajaga kiradi.

Metodika va texnologiya o'rtasidagi farq

Metodika va pedagogik texnologiya tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular ma'lum farqlarga ega.

- **Metodika** "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?" kabi savollarga javob beradi.
- **Texnologiya** esa "Qanday qilib samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savolni markazga qo'yadi.

Metodika o'quv jarayonini qanday tashkil etish lozimligini ko'rsatadi, texnologiya esa uni eng qulay va samarali tarzda amalga oshirish yo'llarini taqdim etadi.

O'qitish metodlari. Nazariy va amaliy savollarda kelishi mumkin.

1. **Ta'limiy o'yinlar yoki raqobatchilik** – raqobat yoki o'yin orqali guruh yoki shaxsning boshqalardan **ustunligini** anglashga yordam beradi. **Kompyuterli o'yinlar** ham keng tarqalgan.
2. **Brainstorming** – **ijodiy fikrlarni to'plash** uchun ishlatiladi. Bunda ishtirokchilar **tanqidsiz** o'z fikrlarini bildiradi va **muammo yechimini** izlaydi. Masalan, **ocharchilik muammosi** haqida o'quvchilarning fikrlari **qayd qilinib**, eng maqbul yechimlar tanlanadi.
3. **Case study** – talabalar biror **voqea yoki vaziyatni tahlil qiladi**, unga oid **bilim va tushunchalarni** qo'llaydi, biror sodir bo'lgan voqea yoki ma'lum vaziyatni **tafsilotini namoyish etadilar**.
4. **Qiziqishlar markazi** – turli kolleksiya va ekspozitsiyalar orqali o'quvchilarning **qiziqishini** oshiradi. Masalan, **etnik kelib chiqish** haqida materiallar olib kelish va **sinfdozlariga taqdimot qilish** vazifa sifatida berilishi mumkin.
5. **Colliqua** – sinfga **mehmonlar** taklif qilinib, ular **o'z kasbi va faoliyati haqida** so'zlab beradi. Masalan, sozanda **jonli ijro** orqali o'quvchilarda **musiqaga muhabbat** uyg'otadi.
6. **Hamkorlikda o'qitish** – yuklatilgan **vazifa va muammolarni birgalikda** hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi.
7. **Ommaviy madaniyat tazyiqi (culture jamming)** – ommaviy axborot vositalari ta'siriga qarshi turish va **stereotiplarni yengish** ko'nikmasini shakllantiradi.
8. **Debat** – muayyan **mavzu yoki muammoga** turli nuqtai nazarlar bilan **yondoshish** va **o'z fikrini himoya qilish** usuli.
9. **Debriefing** – muayyan **tajriba yoki sinovdan so'ng hissiy kechinmalar va intellektual xulosalar** bilan **almashish** jarayoni.
10. **Demonstratsiya** – muayyan jarayon yoki qurilmaning ishlashini **namoyish qilish** usuli.
11. **Kashfiyot yoki tadqiqotchilik** – muayyan vaziyat yoki holatga nisbatan **yangilik** yoki o'z nuqtai nazarni **ilgari surishni** taqazo etadi.
12. **Diskussiya** – muayyan **mavzu yoki holatni muhokama** qilish, turli fikrlarni taqqoslash jarayoni.

Ma'lumotlardan foydalanganda muallif nomi ko'rsatilishi shart.

Muallif: Zaxiriddin Jumanazarov